


ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
ISSN 2992-9229



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal

2024 №1
(3)

Samarqand-2024


ISSN 2992-9229



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2024



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”**

Bosh muharrir:

Juliboy ELTAZAROV
ff.d., professor (O‘zbekiston)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Roxila RUZMANOVA
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Rustam XALMURADOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori (O‘zbekiston);
Hakim XUSHVAQTOV – f.m.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);
Akmal AHATOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);
Muslihiddin MUHIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);
Ibodulla MIRZAYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);
Shuhrat SIROJIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);
Suyun KARIMOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);
Murodqosim ABDIYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);
Azamat PARDADEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);
Musa YULDASHEV – f.f.n., professor (O‘zbekiston);
Dilfuza DJURAKULOVA – t.f.n., dotsent (O‘zbekiston);
Aftondil ERKINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);

Qosimjon SODIQOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);
Hamidulla DADABOYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);
Ma’rufjon YO‘LDOSHEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);
Jabbor ESHONQUL – f.f.d., professor (O‘zbekiston);
Muhabbat QURBONOVA – f.f.d., professor (O‘zbekiston);
Mardon BOLTAYEV – dotsent (O‘zbekiston);
Ali AKAR – f.f.d., professor (Turkiya);
Abduselam ARVAS – f.f.d., professor (Turkiya);
Funda TOPRAK – f.f.d., professor (Turkiya);
Musa Shamil YUKSEL – f.f.d., professor (Turkiya);
Temur KOJAO‘G‘LI – f.f.d., professor (AQSH);
Hayrunnisa ALAN – f.f.d., professor (Turkiya);
Varis CHAKAN – f.f.d., professor (Turkiya);
Almaz ULVI – f.f.d., professor (Ozarbayjon);
Emrah YILMAZ – Phd, dotsent (Turkiya);
Dilshod XURSANOV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);
Shahnoza XUSHMURODOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);
Dinara ISLAMOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);
Mas’ul muharrir: **PhD Zokir BAYNAZAROV (O‘zbekiston)**;
Texnik xodim: **Raxmatulla SHOKIROV (O‘zbekiston)**.



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR”

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:

Жулибай ЭЛТАЗАРОВ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Рохила РУЗМАНОВА
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Рустам ХАЛМУРАДОВ – д.т.н., профессор, ректор Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Хаким ХУШВАКТОВ – д.ф-м.н., профессор, проректор по научной работе и инновациям Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Акмал АХАТОВ – д.т.н., профессор, проректор по международному сотрудничеству Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Муслихиддин МУХИДДИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Ибодулла МИРЗАЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Шухрат СИРОЖИДДИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Суюн КАРИМОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Муродкасим АБДИЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Азамат ПАРДАЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Муса ЮЛДАШЕВ – к.ф.н., профессор (Узбекистан);

Дилфузаджурракурова – к.и.н., доцент (Узбекистан);

Афтондил ЭРКИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Касимжон СОДИКОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Хамидулла ДАДАБОЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Маруфжан ЙУЛДОШЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Джаббар ЭШАНКУЛ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Мухаббат КУРБАНОВА – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Мардон БОЛТАЕВ – доцент (Узбекистан);

Али АКАР – д.ф.н., профессор (Турция);

Абдуслам АРВАС – д.ф.н., профессор (Турция);

Фунда ТОПРАК – д.ф.н., профессор (Турция);

Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ – д.ф.н., профессор (Турция);

Темур КОДЖАОГЛУ – д.ф.н., профессор (США);

Хайрунисса АЛАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Варис ЧАКАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Алмаз УЛЬВИ – д.ф.н., профессор (Азербайджан).

Эмрах ЙИЛМАЗ – PhD, доцент (Турция);


Дилшод ХУРСАНОВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Шахноза ХУШМУРОДОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Динара ИСЛАМОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Ответственный редактор: **PhD Зокир БАЙНАЗАРОВ** (Узбекистан)

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ** (Узбекистан)



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR”

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)

Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)

Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)

Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)

EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Akmal AKHATOV – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV (Uzbekistan)

Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARIMOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDASHEV (Uzbekistan);

Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA (Uzbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Khamidulla DADABOEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Marufjon YULDASHEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Jabbar ESHANKUL (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. Mardon BOLTAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Turkey);

Prof. Dr. Abduselam ARVAS (Turkey);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Turkey);

Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL (Turkey);

Prof. Dr. Temur KOJAOGLU (USA);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Turkey);

Prof. Dr. Varis CHAKAN (Turkey);

Prof. Dr. Almaz ULVI (Azerbaijan);

Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ (Turkey);

Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dinara ISLAMOVA (Uzbekistan);

Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)

Technical staff: **Rakhmatulla SHOKIROV** (Uzbekistan)

Prof. Dr. Rustam HALMURADOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Akmal AHATOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİN (Özbekistan);

Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİN (Özbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARİMOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDİYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDAŞEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Hamidulla DADABOYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Marufcan YULDOŞEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Cabbar EŞANKUL (Özbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Mardon BOLTAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Türkiye);

Prof. Dr. Abdusalem ARVAS (Türkiye);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Türkiye);

Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL (Türkiye);

Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU (ABD);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Türkiye);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Türkiye);

Prof. Dr. Almaz ÜLVİ (Azerbaycan);

Doç. Dr. Emrah YILMAZ (Türkiye);

Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV (Özbekistan);

Doç. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA (Özbekistan);

Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)

Teknik Personel: **Rahmatullah ŞOKIROV** (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ
TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

Annagurban AŞIROV

MAHTUMKULU FİRÂKİ: TÜRKMEN HALKININ MİLLÎ GURURU 5

Yusuf AZMUN

TÜRKMEN ŞAİRİ MAHTIMGULI VE ONUN ESERLERİ HAKKINDA BİLİNMESİ
GEREKEN KONULAR: I..... 16

Begmirat GEREY

BÜYÜK FİRÂKİ HAKKINDA DÜŞÜNCELER (CEMŞİT'İN KADEHİNE BİR BAKIŞ) 32

Abdurrahman GÜZEL

TÜRK DÜNYASINDA “MAHTUMKULU EKOLÜ” ÜZERİNE KISA BİR
DEĞERLENDİRME..... 46

Emrah YILMAZ

MAHTUMKULU FİRÂKİ VE OKUDUĞU MEDRESELER 51

Tazegül TAÇMAMMEDOVA

TÜRKMEN ŞAİRLERİNİN ŞİİRLERİNDE MAHTUMKULU’NUN EDEBÎ MEKTEBİ 63

Usmon Qobilov

TURKIY-O'ZBEK ADABIYOTIDA TAVHID, NUBUVVAT VA BADIYYAT MASALALARI
..... 68

Dövletmirat YAZKULIYEV

BEÝİK AKYLDARYŇ ŞALARY WASP EDÝÄN ŞYGYRLARY HAKYNDÄ 82

Abdulla Ulug‘ov

"O'RTANDIM, YONDIM" 93

TURKIY XALQLAR DIALEKTOTOLOGIYASI

Berdi SARIYEV

TÜRKMEN TÜRKÇESİNDE “SÖZ” KAVRAMI..... 109

Tagandurdı BEKJAYEV

MAHTUMKULU ESERLERİNDE FRAZEOLÖJİK VARYANTLAR 119

Raxmatulla SHOKIROV

SOVET ITTIFOQI DAVRIDA O'RTA OSIYODA OLIB BORILGAN TOPONIMIK
O'ZGARISHLAR VA ULARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI 127

Севиля БАДАЛОВА, Фахриддин ШОДИЕВ

ЗАИМСТВОВАНИЯ ИЗ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ В СОСТАВЕ РУССКОЙ ЛЕКСИКИ ... 133

TURKIY XALQLARNING IJTIMOIY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

Foziljon SHUKUROV

SAMARQAND ADABIY MUHITINING ADABIYOT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI 140

Dilfuza DJURAKULOVA

TURKISTON MINTAQASIDAGI ENG QADIMGI MIGRATSION JARAYONLAR 145

Yoo Inyoung

O'ZBEKİSTON HUDUDIDAGI DAVLAT UYUSHMALARINING KOGURYO VA SILLA
DAVLATLARI BILAN IQTISODIY-MADANIY ALOQALARI 150

Nurbek ALLABERGENOV

ILK O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYO MINTAQASIDA YUZ BERGAN SIYOSIY VA
ETNOMADANIY JARAYONLAR VA ULARNING TANGA ZARBIGA TA'SIRI 157

Hilola NORMAMATOVA

ILK O'RTA ASRLAR O'RTA OSIYO TANGALARIDA O'RIN OLGAN TAMG'ALAR.... 165



AZIZ MUSHTARIY!

Turkologik tadqiqotlarni e'lon qiladigan jurnalimizning ushbu sonida ham til, madaniyat va mushtarak qadriyatlаримиз изларини топасиз. Ahmad Yassaviy, Fuzuliy, Yunus Emro, Alisher Navoiy, Abay ijodi kabi qalbga kirib, insonning dunyoqarashini o'striradigan, uni rivojlantirish va qayta qurishni o'ziga vazifa qilib olgan mushtarak qadriyatlаримиздан бири Maxtumquli Firog 'iy ijodidir. YUNESKO tomonidan 2024-yil tavalludining 300 yilligi deb e'lon qilinishi adabiyot ixlosmandlari, siyosatchilar va ilmiy doiralarning yana bir bor e'tiborini Maxtumquliga qaratishga sabab bo'ldi. Shuning bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 19-fevralda "Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog 'iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorini e'lon qilib, mutafakkir shoirning ijodini yana-da chuqurroq o'rganishga asos yaratib berdi. Shu munosabat bilan jurnalimizning 3-sonini ta'lim hayotining salmoqli qismini O'zbekistonning serhosil zaminida o'tkazgan mutafakkir shoir xotirasiga bag'ishlashga qaror qildik. Ushbu sonda "Turkman xalqining milliy g'ururi, shoir va uning ijodi haqidagi masalalar, Maxtumquli adabiy maktabi, tahsil olgan madrasalar, o'zbek adabiyotida tawhid, nubuvvat va badiiyat masalalar, Firog 'iy haqidagi fikrlar, ulug' donishmand tomonidan sultonlarga berilgan tavsiflar, turkman tilidagi so'z tushunchasi, frazeologik variantlar" kabi mavzularga bag'ishlangan maqolalar kiritildi.

TAHRIRIYAT

DEAR READER!

You will find traces of our language, culture and common values in this issue of our journal, which publishes Turkological researches. One of our common values is Makhtumkuli Firagli's work, which penetrates into the heart, develops a person's worldview, and takes it upon himself to develop and reconstruct it, such as the works of Ahmad Yassavi, Fuzuli, Yunus Emro, Alisher Navoi, Abay. The declaration of the 300th anniversary of his birth by UNESCO in 2024 rised the attention of literature lovers, politicians and scientific circles to once again focus on Makhtumkuli. At the same time, by announcing the decision of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on 19.02.2024 "On the wide celebration of the 300th anniversary of the birth of the great Turkmen poet and thinker Makhtumkuli Firagli", created the basis for a deeper study of the work of the great poet. In this regard, our editors have decided to dedicate the 3rd issue of our magazine to the memory of the great poet who spent a significant part of his educational life in the fertile land of Uzbekistan, as a debt and symbol of gratitude. In this issue, "the national pride of the Turkmen people, the necessary questions about the poet and his work, the literary school of Makhtumkuli, the madrassas where he studied, the issues of monotheism, prophecy and artistry in Uzbek literature, thoughts about Firagli, descriptions given by the great sage to the sultans, word concept, phraseological variants" given in Turkman language are included.

EDITORIAL BOARD

SEVGİLİ OKUYUCU!

Türkoloji araştırmalarını sürdürden dergimizin bu sayısında dilimizin, kültürümüzün ve müsterek değerlerimizin izlerini bulacaksınız. Ahmet Yesevî, Yûnus Emre, Ali Şîr Nevâyî, Muhammed Fuzûlî, Abay Kunanbayev, Toktogul Satlganov gibi gönle girip, kişinin dünya görüşünü geliştiren ve insanı yeniden inşa etmeyi kendine görev edinen müsterek değerlerimizden biri de Mahtumkulu Firâkî'dir. 2024 yılının UNESCO tarafından doğumunun 300. yılı olarak ilan edilmesi edebiyatseverlerin, siyasetçilerin ve bilim çevrelerinin dikkatinin bir kez daha Mahtumkulu'ya yöneltmesine sebep olmuştur. Bununla birlikte Özbekistan Cumhuriyeti Cumhurbaşkanı Şevket Mirziyoyev 19.02.2024 tarihinde "Büyük Türkmen şairi ve düşünürü Mahtumkulu Firâkî'nin doğumunun 300. yıldönümünün geniş çapta kutlanmasıyla ilgili" kararını açıklaması, mütefekkir şairin eserlerinin daha derinlemesine incelenmesi için bir temel oluşturdu. Bu vesileyle tahrir heyetimiz bir kalem ve gönül borcu olarak dergimizin 3. sayısını; tahsil hayatının önemli bir kısmını Özbekistan'ın mümbit ikliminde geçiren mütefekkir şairin anısına bağışlamaya karar vermiştir. Bu sayıda "Türkmen halkın millî gururu, şair ve eserleri hakkında bilinmesi gereken konular, Mahtumkulu edebî mektebi, okuduğu medreseler, Özbek edebiyatında tevhid, nübüvvet ve bediyyat meseleleri, Firâkî'ye dair düşünceler, büyük bilgenin sultanları tasviri, Türkmençe'de söz kavramı, frazeolojik varyantlar" gibi konu başlıklarına yer verilmiştir.

YAYIN KURULU

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

Следы нашего языка, культуры и общих ценностей вы найдете в этом номере нашего журнала, в котором публикуются тюркологические исследования. Одной из наших общих ценностей является творчество Махтумкули Фраги, которое проникает в самое сердце, развивает мировоззрение человека и берет на себя задачу его развития, как, например, произведения Ахмада Яссави, Физули, Юнуса Эмро, Алишера Навои, Бухта. Объявление ЮНЕСКО 2024 года 300-летием со дня его рождения Махтумкули заставило вновь обратить внимание любителей литературы, политиков и научных кругов на мыслителя. Вместе с тем, объявив решение Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева от 19.02.2024 года «О широком праздновании 300-летия со дня рождения великого туркменского поэта и мыслителя Махтумкули Фраги», наше правительство создало основу для более глубокого изучения творчества поэта-мыслителя. В связи с этим наша редакция приняла решение посвятить 3-й номер нашего журнала памяти поэта-мыслителя, прошедшего значительную часть своей образовательной жизни на благодатной земле Узбекистана, как долг и символ благодарности. В этом номере освещены такие темы, как национальная гордость туркменского народа, необходимые вопросы о поэте и его творчестве, о литературной школе Махтумкули, медресе, в которых он учился, вопросы единобожия, пророчества и художественности в узбекской литературе, мысли о Фраги, а также включены описания, данные великим мудрецом султанам, туркменский язык, такие наименования, как словосочетание, фразеологические варианты».

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

MAHTUMQULI HAQIDA!

Turkman mumtoz adabiyotining yetakchi shoiri Maxtumquli Firog‘iy (1724-1807) mutafakkir inson sifatida sivilizatsiyamiz tarixida eng ko‘zga ko‘ringan namoyondalardan biridir. U Eronning Guliston viloyatiga qarashli Gunbedkavus shahri yaqinidagi Xojigovshan qishlog‘ida Davlatmahmad Ozodiy oilasida tug‘ilgan va vafotidan so‘ng Turkmansahrodag'i Oqto‘qay qishlog‘i maqbarasida otasi yoniga dafn etilgan. U avval ovul mакtabida, so‘ng 1753-yilda Qiziloyoqdagi (Lebab viloyati Xalach tumani) Idrisbobo, 1754-yilda Buxorodagi Ko‘kaldosh, 1757-yilda Xivadagi Sherg‘ozixon, Farg‘onadagi Andijon madrasalarida tahsil oladi. Maxtumquli yoshligida bir qancha fanlarni chuqur o‘zlashtiradi, shu bilan birga, zargarlik hunarini ham o‘rganadi.

Ozarbayjon, Suriya, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, O‘rta Osiyo mamlakatlari sayohatlar qiladi. Forobiy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Firdavsiy, Mansur Halloj, G‘azali, Zamaxshariy, Naimiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Nizomiy, Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bayram Xon, Nejep Bekpan, Ulug‘bek kabi ko‘plab mutafakkirlarning asarlarini o‘qib ijodlaridan bahramand bo‘adi, hatto Afslotun, Arastu, Xelen kabi mutafakkirlarning falsafiy qarashlari bilan ham yaqindan tanishadi.

XVIII asr turkman adabiyotining eng muhim namoyandalaridan biri bo‘lgan va turkmanchaning yozma til bo‘lishiga asos solgan Maxtumqulining birdamlik xabarlari va sa‘y-harakatlari mustaqil Turkmaniston Respublikasining siyosiy kodlarini ochib beruvchi eng sara fikrlarni ifodalaydi. Shoирning didaktik uslubda yozilgan she’rlarida tarqoq turkman qabilalarining birlashishi lozimligi, mustaqil davlat barpo etish g‘oyasi, Vatanga va xalqqa muhabbat, siyosiy-ijtimoiy tanqid, falsafiy qarashlar, axloqiy tushunchalar, so‘fiylik ta’limotlari va nasihatlari ifodalangan.

Maxtumquli adabiy merosida o‘zbek-turkman ellarining qon-qardoshlik tuyg‘ulari ifodalananadi. 9 yoshidan (otasi uyidagi yig‘inlar ta’sirida) qo‘shiqlar to‘qiy boshlaydi. Maxtumquli she’riyati umumturkiy mushtarak g‘oyalar, dardlar, orzu-armonlar bilan yo‘g‘rilgan. Uning ma’rifiy asarlarida, pandu nasihatlarida umumturkiy ma’naviyat yaqqol mujassam. Shoир haqida turli geografiyalarda hikoya, roman, drama, ocherk, xotira va rivoyat kabi nasriy adabiy janrlardan tashqari nazm shaklidagi asarlar, jumladan, xalq qo‘shiqlari, lirk va epik she’rlar ham yaratilgan.

Xorazmnинг serhosil iqlimida so‘fiylik bilan o‘sib-ulg‘aygan Maxtumquli, shubhasiz turkman xalqi shoirlarining ma’naviyat tabibi, siyosiy dahosi, omad yulduzidir. U bir qancha lirk she’rlar, liroepik dostonlar, g‘azallar yozadi. Bizgacha uning 20 ming misraga yaqin she’rlari yetib kelgan. Ularda xalq hayoti, urf-odatlari, o’sha davrdagi ijtimoiy voqealar aks etgan («Bo‘lmas», «Kelgay», «Naylayin», «Etmas», «Bo‘lar», «Kechdi zamona», «Bilinmas» kabi she’rlari).

Turkmaniston davlatini Maxtumqulisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi; chunki u turkman xalqining ramzidir. Shoир ijodida asosiy o‘rinni egallagan mavzulardan biri ham mustaqillik tushunchasidir. Turkmanlarni bir davlat, bir bayroq ostida, bir dasturxon atrofida yig‘ilishga chaqirgan mutafakkir “Turkmanning” nomli she’rida birlik haqidagi fikrlarini quyidagicha ifodalaydi:

Turkmanlar bog’lasa bir bo‘lib belni,
Quritar Qulzumni, daryoyi Nilni,
Taka, yovmut, go‘klang, yazir, alili,
Bir davlatga xizmat etsak beshimiz.

Maxtumquli ijodini oziqlantiruvchi uchta asosiy manba mayjud: Turkman xalq adabiyoti, Sharq mumtoz adabiyoti, yunon va hind falsafasi. Uning yetti yuzga yaqin she’rlariga nazar tashlasak; shoирning falsafa, sotsiologiya, tibbiyat, matematika, ilohiyot, musiqa, xalq adabiyoti, xalq tabobati va zargarlik kabi ko‘plab fan va san‘at sohalaridan xabardor bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi. She’rlari tahlil qilinsa, bir qator sohaga tegishli ilmlardan xabardor bo‘lganligi anglashiladi. Shu jihatdan shoirlilik sifati unga yetarli ta’rif emas. U diniy va milliy mavzularni mukammal yoritgan asarlar bilan o‘z chegarasidan chiqib, mutafakkir shoир bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi. Darhaqiqat, tavalludining 300 yilligi munosabati bilan YUNESKO tomonidan 2024-yilning “Mahtumquli Firog‘iy yili” deb e’lon qilinishi ham buning yana bir yorqin ifodasıdır. Bu holat Turkmaniston madaniy diplomatiyasining bosh me’mori Maxtumquli ekanligini ko‘rsatishi bilan ham ahamiyatlidir. Binobarin, shoirdan qolgan asarlar nasaqat turkmanlar, balki butun insoniyat uchun noyob madaniy boylikdir. U Sharq-islom sivilizatsiyasining Marv, Samarqand, Xiva, Buxoro, Andijon kabi qadimiy madaniyat markazlaridan o‘ziga meros qolgan tarixiy bilimlar bilan voyaga yetdi va “Haq yo‘lida yo‘l ko‘rsatuvchisiz sayr qilib bo‘lmaydi” deb Turkistonning ma’naviy chiroqlari bilan rishtalar o‘rnatgan va qalbida yoqqan hikmat uchqunlari bilan yo‘limizni yorituvchi mash’alaga aylangan.

Mirzo Kenjabeck ta’biri bilan aytganda: Maxtumquli – turkiy xalqlarning sayroqi tili, sahroning guli, gulning bulbuli, Haqning sodiq, oshiq va orif qulidir.

TURKIY-O'ZBEK ADABIYOTIDA TAVHID, NUBUVVAT VA BADIYAT MASALALARI

Usmon QOBILOV

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail: usmonqobilov82@gmail.com

Annotasiya: Ushbu ilmiy maqola turkiy-o'zbek mumtoz adabiyotining muhim va dolzarb masalalaridan bo'lgan nubuvvat va badiiy ijod muammosi tadqiqiga bag'ishlanadi. Tadqiqotlar shuni ma'lum qiladiki, Sharq, xususan, turkiy-o'zbek tasavvuf va mumtoz adabiyoti g'oyaviy-badiiy olamida nubuvvat ta'limoti (profetologiya) salmoqli o'rinn tutadi. Bu olamshumul hodisani anglamasdan Sharq ma'naviyati, madaniyati, chunonchi, badiiy adabiyoti mohiyatini tushunib bo'lmaydi. Shu ma'noda maqolada, birinchidan, nubuvvat tushunchasi lug'aviy-istilohiy va ma'rifiy ma'nolari izohlanadi, adabiy jarayonlarda ifoda etilish an'analari nazariy jihatlardan baholanadi, tavhid, nubuvvat va badiiy ijod masalalariga oydinliklar kiritiladi, nubuvvat namoyon bo'lishining qator holatlari manbalar asosida tadqiq etiladi. Kuzatishlardan ayon bo'ladiki, nubuvvat tasavvuf ta'limotining shakllanishi va rivojidagina emas, balki sufiylik va mumtoz adabiyot taraqqiyotiga ham katta ta'sir etgan ilohiy hodisa hisoblanadi. Shuning uchun maqolada manbalar va qarashlarga asoslangan holda nubuvvat ta'limotiga daxldor ayrim haqiqatlar ilmiy tadqiq etiladi. Bunda muqaddas manbalar, tasavvuf va mumtoz adabiyot namoyondalari, Sharq mutafakkirlari qarashlariga tayangan holda fikrlar yuritiladi. Ushbu tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, jahon adabiyotidagi boshqa hodisalar singari nubuvvat ta'limoti haqidagi nazariy fikrlar va badiiy talqinlar borasida ham Alisher Navoiy ijodi yuqori maqomda turadi. Shularni hisobga olgan holda maqolada nubuvvat masalasi va uning mumtoz adabiyot poetik olamidagi mavqeyi imkon qadar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Sharq mumtoz adabiyoti, tavhid va nubuvvat masalasi, nubuvvat va badiiy ijod, islomiy manbalar, an'ana va yangicha talqin, Alisher Navoiy ijodi, mavzu va g'oya, obraz va motiv, timsol va tavsif.

ВОПРОСЫ МОНОТЕИЗМА, ПРОРОЧЕСТВА И ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА В ТЮРКО-УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: Данная научная статья посвящена изучению проблемы пророчества и художественного творчества, которые являются важными и актуальными вопросами турецко-узбекской классической литературы. Исследования показывают, что учение о пророчестве (профетологии) занимает важное место в идейно-художественном мире Востока, в частности, турецко-узбекской мистики и классической литературы. Без понимания этого универсального явления невозможно понять суть восточной духовности, культуры, например, литературной литературы. В этом смысле в статье, во-первых, объясняются лексико-исконные и просветительские значения понятия пророчества, с теоретической точки зрения оцениваются традиции выражения в литературных процессах, уточняются вопросы таухида, нубуввата и художественного творчества, на основе источников исследуется ряд случаев проявления нубуввата. Из наблюдений видно, что нубувват считается божественным явлением, оказавшим большое влияние не только на

становление и развитие учения суфизма, но и на развитие суфизма и классической литературы. Поэтому в статье будут научно исследованы некоторые истины, относящиеся к учению нубувват, на основе источников и взглядов. В нем содержатся рассуждения, опирающиеся на взгляды святых источников, представителей мистики и классической литературы, мыслителей Востока. Результаты нашего исследования показали, что, как и другие явления мировой литературы, творчество Алишера Навои занимает высокое положение в теоретических размышлениях и художественных интерпретациях учения нубувват. Учитывая это, в статье максимально раскрывается вопрос о пророчестве и его положении в поэтическом мире классической литературы.

Ключевые слова: восточная классическая литература, проблема монотеизма и пророчества, пророчество и художественное творчество, исламские источники, традиция и новая интерпретация, творчество Алишера Навои, тема и идея, образ и мотив, символ и описание.

MOTH, PROPHECY AND LITERATURE ISSUES IN TURKISH-UZBEK LITERATURE

Annotation: This scientific article is dedicated to the study of the problem of prophecy and artistic creativity, which are important and topical issues of Turkish-Uzbek classical literature. Research shows that the teaching of prophecy (prophetology) occupies an important place in the ideological and artistic world of the East, in particular, Turkish-Uzbek mysticism and classical literature. Without understanding this universal phenomenon, it is impossible to understand the essence of Eastern spirituality, culture, for example, literary literature. In this sense, in the article, firstly, the lexical-terminological and educational meanings of the concept of prophecy are explained, the traditions of expression in literary processes are evaluated from theoretical aspects, the issues of monotheism, prophecy and artistic creation are clarified, the manifestation of prophecy A number of cases are researched based on sources. It is clear from the observations that prophecy is a divine phenomenon that has a great influence not only on the formation and development of Sufism, but also on the development of Sufism and classical literature. Therefore, in the article, based on sources and views, some truths related to the teaching of prophecy are scientifically researched. In this, opinions are held based on the views of sacred sources, examples of Sufism and classic literature, Eastern thinkers. The results of our research have shown that Alisher Navoi's work has a high status in terms of theoretical ideas and artistic interpretations of the doctrine of prophecy, as well as other phenomena in world literature. Taking this into account, the article reveals the issue of prophecy and its position in the poetic world of classical literature as much as possible.

Key words: Eastern classical literature, the issue of monotheism and prophecy, prophecy and artistic creation, Islamic sources, tradition and new interpretation, Alisher Navoi's creation, theme and idea, image and motive, symbol and description.

Kirish

Dunyo adabiy jarayonidan ma'lumki, hech bir adabiyot yoki san'at o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Uning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyoti, yuksalishi yoki tanazzuli muayyan ijtimoiy-ma'naviy omillar taqozosiga ko'ra amalga oshadi, hech bir san'at turi ijtimoiy-tabiiy ta'sirlardan holi ham bo'lmaydi. Ayniqsa, so'z san'ati o'zining ko'p qirrali funksiyasi bilan

ma’naviy-ijtimoiy hayotning barcha sohalariga daxldorligi bois bunday aloqalar miqyosida g‘oyat chuqur va teran zaminga egadir. Chunonchi, badiiy adabiyot tarixan ijodiy jarayonning og‘zaki namunalari, qadim yozma yodnomalar, antik madaniyat yodgorliklari, din va ruhoniyat ta’limotlari, falsafa va hikmat ilmi, aqliy va naqliy ilmlar kabi yuzlab sohalar bilan doimo bog‘liq bo‘lib kelgan va keladi. Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti tarixinining bir davrini mumtoz (toza, imtiyozli) adabiyot davri tashkil etadi. Bu davr adabiyotining olamshumulligi, betakrorligi, o‘lmasligi muqaddas islom, tavhid va nubuvvat ta’limoti bilan yanada barqarorlashadi.

Nubuvvat tushunchasi va nabiylilik talqini

Jahon xalqlari tamadduni davrida umuminsoniyat ma’naviy-ruhoni y ehtiyojlari taqozasiga ko‘ra vujudga kelgan nubuvvat ta’limoti badiiy ijodning bani bashar manfaatlari ifodasi sifatida namoyon bo‘lishiga ulkan hissa qo‘sghan alohida ma’naviy-ruhoni hodisa hisoblanadi. Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvuf ilmi tadqiqotchisi, yirik sharqshunos olim Y.E.Bertels “Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Tasavvuf klassiklari XX asr boshlariga qadar sharqona adabiyotga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bu tasavvufga asosiy e’tibor qaratishni talab etadi. Musulmon Sharqining yirik ijodkorlari ba’zi istisnolar hisobga olinmaganda u yoki bu jihatlardan tasavvuf bilan bog‘liqidir. Tasavvuf adabiyotini to‘liq anglamasdan Sharqning o‘zini ham tushunib bo‘lmaydi”, – degan edi[6.54]. Bu fikrni nubuvvat ta’limotining tasavvuf va mumtoz adabiyotga ko‘rsatgan ta’siri to‘g‘risida ham aytish lozim. Manbalarda nubuvvat tushunchasi ko‘p ma’noli ekanligi ta’kidlanadi, qadimgi ivriy-arab tillarida bir necha asosga urg‘u beriladi. Chunonchi bu tillarda “nab’un” – xabar, “nabva” (nubuv) – yuksalish, “nabi” – payg‘ambar ma’nolarini bildiradi[8.45]. Shunga ko‘ra, “nab’un” – Alloh indirgan-tushirgan “so‘zlar”, “xabarlar”, “nabva” – samoviylik, “nabi” esa “xabarchi”, “ilohiy kalomni yetkazuvchi” ma’nolarini anglatadi. Gap shundaki, nubuvvat tushunchasi bilan bog‘liq turli ma’nolar ichida “ilohiy xabar”, “vahiy”, “nuzul” birlamchi hisoblanadi. Shu jumladan, Qur’onning ham qayta tirlish, Qiyomat, ajr haqida xabar beruvchi alohida bir surasi “Naba” deb yuritiladi. Demak, nubuvvat atamasi “xabarlar”, “nabiylilik” va “nabiylar” tushunchalarini o‘zida mujassamlashtiradi va bir ifoda bilan “payg‘ambarlik ta’limoti” ma’nosini yuzaga keltiradi. Zotan, nubuvvat turli manba va istilohlarda o‘ziga xos izoh etilsa-da, mohiyatan bir ma’noda tushuniladi. Misol uchun olaylik, “Farhangi istilohot va iboroti irfoniy” (Irfoniy istiloh va iboralar lug‘ati)da: “nubuvvat – istilohda Haq Taolo va uning ahkomlarini xalqqa yetkazmoqlikdur. So‘fiylar, avliyouollohlar hamda aqtoblarni anbiyoning vorisi deb sanaydilar. Muhammad a.s.dan so‘ng “lo nabiyyu ba’di” (undan keyin payg‘ambar yo‘q) deb hisoblansa-da, nubuvvatni so‘fiylar, avliyouollohlar va aqtoblarning ilohiy ilhom olmoqliklari vajhi bilan karomatga doxil qiladilar. Ya’ni, anbiyolarga vahiy kelsa, avliyolar Rabboniy ilhom vositasida o‘zgalardan ajralib turadilar”, - deyiladi[18.829]. Shuningdek, nubuvvat bir qator lug‘atlarda (“Muntaho al-arab”, “Nozim ul-atbo”, “Somiy”) “payg‘ambarlik” deb beriladi. Jumladan, “G‘iyos ul-lug‘ot”da “nubuvvat – xabar bermoq, xabardor qilmoq, payg‘ambarlik” degan ma’nolarda izohlanadi[9.468], “Islom. Ensiklopediyasi”da: “nubuvvat (arab. – payg‘ambarlik) – ... Muhammad (s.a.v) va uning vazifasini aqida sifatida tan olish va unga ishonish”, - deb ta’riflanadi[9.345]. Xullas, nubuvvat bir islomiy-ilohiy ta’limot o‘laroq Sharq va o‘zbek mumtoz adabiyotida uzoq asrlar davomida ulug‘ ma’rifiy-ma’naviy va umumbashariy hodisa sifatida qabul qilindi va turfa adabiy janrlarda ham mazmunan, ham timsoliy jihatlardan badiiy talqin etildi. Jahon adabiyotshunosligida nubuvvat terminiga sinonim sifatida profetologiya tushunchasi ishlataladi. Bu (profetologiya) istilohi qadimgi yunon-lotin tilida “prorok” va “logos” so‘zlaridan olingan bo‘lib, payg‘ambar va ta’limot, ya’ni “payg‘ambarlik ta’limoti” ma’nosini

bildiradi. Shundan nubuvvat (profetologiya) termini “muqaddas kalom” va “elchilar” ma’rifati ifodasini anglatadi. Ma’lumki, islomiy manbalarda 124 ming payg‘ambar o’tganligi “Qisas ar-Rabg‘uziy”ning Nuh alayhissalom qissasida qayd etiladi. Qur’onda Muhammad payg‘ambar bilan birgalikda yigirma beshta payg‘ambar nomlari zikr etiladi. Ular zikr etilish darajalariga ko‘ra turli miqdorni tashkil etadi, “ular haqida keng va qisqacha xabarlar keltiriladi. Tarixiy qissalarni bayon etishda Qur’oni Karim o‘ziga xos uslub qo’llaydi. Unga ko‘ra, Qur’on tarixiy voqealarning sanasini keltirishga yoki qachon sodir bo‘lgani, qaysi voqeadean keyin yoki oldin bo‘lganini zikr etishga asoslanmaydi. Qissalarni zikr etish voqe va undan olinadigan nasihat, foydalarni hosil qilishga qaratiladi”[19.104]. Olimlar fikricha, Qur’oni Karimda tarixiy qissalar mingdan ortiq oyatlarda keltiriladi. Shuni aytish kerakki, payg‘ambar siymolar soni ilohiy manbalar, xususan, Qur’oni Karimda aniq raqamlarda qayd etilmaydi. Chunonchi, undagi: “Biz ko‘pgina payg‘ambarlar yubordik. Yuqorida sizga ular haqida hikoya qildik. Va boshqa payg‘ambarlar ham yuborganmizki, ular haqida sizga hikoya qilmadik”, - oyati masalaning umumiyligi holatini anglatadi[20.544] yoki boshqa bir oyatlarda barcha qavmlarga payg‘ambar yuborilganligi aytildi, ayrim manbalarda payg‘ambarlar soni hech kimga ma’lum emasligi qayd etiladi. Bu haqdagi aniq raqamlar hadislar, sunna, tafsir, ta’vil, qasaslarda uchraydi. Nubuvvatning samoviy kitoblar, Alisher Navoiy ta’biri bilan aytalganda, “kutubi osmoniy”, “osmoniy to‘rt daftar”, “asfori samoviy” ma’nosni haqida gap borganda esa Zabur, Tavrot, Injil, Qur’on nazarda tutiladi. Sharq, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotida nubuvvat ma’rifati va timsollari nihoyat keng o‘rin egallaydi. Manbalarga ko‘ra, zikr etilgan payg‘ambarlar asosan yahudiy qavmlarga mansubligi va faqat beshtasi arabiyanligi qayd etiladi (Hud, Solih, Shis, Ismoil, Muhammad(s.a.v)). Gap shundaki, nubuvvat ta’limotida zikr etiladigan nabiy siymolarning barchasi ham yahudiylik yoki nasroniylikda payg‘ambar sifatida tavsif etilmaydi. Masalan, yahudiylikda Odam – birinchi inson, Nuh – kema yasagan duradgor, Sulaymon – ulug‘ shoh sifatida qaraladi. Ular payg‘ambar sifatida islomiy manbalarda e’tirof etiladi va bu siymolar insoniyatning ham moddiy, ham ma’naviy tarixi bilan bog‘lanadi. Bu holat boshqa hodisalar singari nubuvvat ta’limoti ham diniy-ilohiy qarashlarning islom davrida yuqori bosqichga ko‘tarilganligini isbot etadi. Shu nuqtai nazardan faylasuf Z.J.Shoyevning “Qur’onda nubuvvat ta’limoti o‘zining yuksak gumanistik ruhi, diniy bag‘rikengligi va o‘zga din payg‘ambarlariga bo‘lgan chuqur muhabbat bilan xarakterlanadi. Bu fazilatlar barcha muslimlar uchun komillik prototipi – islom payg‘ambari siy whole side o‘z amaliy ifodasini topadi. Qur’on va Hadis g‘ayridin vakillariga adovat va ular diniy tuyg‘ularini haqoratlanishiga mutloqo qarshidir. Buning natijasida islom arab bo‘lmagan mamlakatlar, xususan, Eron, O‘rta Osiyo kabi o‘lkalarda tez tarqalishiga olib keldi. Islom payg‘ambari vafoti bilan dunyoda monoteistik din bosqichi nihoyasiga yetdi. Qur’onning nubuvvat ta’limoti xotimiha qidagi g‘oyasi tufayli ilohiy olamlar bilan bog‘liq aloqalar ham va unga da’vogarlik ham xotima topadi. Ammo nubuvvat ta’limoti inson botiniy tajribalari uchun yangi ilmlar ufqini ochib beradi. Islom madaniyatining bu g‘oyasi keyinchalik xilma xil ilm-ma’rifat maktablarini vujudga keltirdi”, - fikri e’tiborlidir[15.25]. Sharqona qarashlarda nubuvvat tavriddan keyin va valoyatdan oldingi alohida ilohiy maqom sifatida qaraladi. U badiiy adabiyot, chunonchi, o‘zbek adabiyoti mumtozlik darajasini ta’milagan ilhombaxsh sohalardan sanaladi. Agar jahon adabiyotida adabiy janr-shakllarning asosiy qismi Sharq hissasiga to‘g‘ri kelsa, ularning ham katta ulushi nubuvvat ma’rifati ifodasi bilan bog‘lanadi. Bu fikr badiiy ijodning mazmun-mundarijasi va g‘oyaviy-badiiy dunyosiga ham daxldorlik kasb etadi, nubuvvat ta’limoti va obraz-timsollari talqini mumtoz adabiyot poetik olami bilan har jihatdan tutashadi. Shu o‘rinda Sharq mumtoz adabiyotida nubuvvat ifodasi bilan bog‘liq bir mulohazani aytish kerak bo‘ladi. Jahon, va qolaversa, milliy

adabiyotshunoslikda uzoq davrlar Sharq mumtoz adabiyoti she’riyatdan iboratligi haqida fikr yuritib kelindi, adabiyotshunoslik she’riyat nazariyasi asosida yaratilganligi ta’kidlandi, badiiy nasr va epiklik Sharq badiiy tafakkuri mahsuli ekanligi, Sharqda epik tasvir yuqori darajaga ko’tarilganligi va mumtoz nazm vujudga kelishiga zamin tayyorlaganligi e’tibordan chetda qoldi. Aynan badiiy nasr olamshumulligini ta’minlagan jihat ham bevosita nubuvvat qissalari va haqiqatlari ifodasi sanaladi. Bunda birgina “qissas ul-anbiyo” an’anaviy turkumi hisobga olinadigan bo’lsa, Sharqda badiiy nasr butun ijodiy jarayonning poydevori va cho’qqisi ekanligi namoyon bo’ladi. Masalaning muhimligi shundaki, nubuvvat ma’rifati va obraz-timsollari badiiy talqini butun bashariyatga xos tuyg‘u-kechinmalar ifodasini vujudga keltiradi, islomning chuqur gumanizm va ezhgulikka yo‘g‘rilgan ma’rifati sifatida namoyon bo’ladi. Bunda, birinchidan, nubuvvatning o‘zbek adabiyotida badiiy motiv va poetik obraz sifatida talqini ham unga mansub xalqning ezhgulik va poklik, ma’naviy bedorlik va ruhoniy ozodlik haqidagi qarashlari badiiy ifodasi sifatida ko‘rinadi, ikkinchidan, nubuvvat ma’rifati va badiiy obrazlari talqini nafaqat Sharq mumtoz adabiyoti, balki dunyo adabiyotining mangu-abadiy masalalaridan hisoblanadi. Xususan, nubuvvat mavzusi o‘zbek mumtoz adabiyotining ham yorqin sahifalarini tashkil etadi, unga murojaat etmagan, undan ruh olmagan ijodkor va mumtoz asarni topish amrimaholdir. Jahoniy tajribalardan kelib chiqib aytish lozimki, badiiy adabiyot(o‘zbek adabiyoti)ning bir asosi xalq og‘zaki ijodi, tarixi va hayoti bo’lsa, ikkinchi bir asosini dinu islom madaniyati va ma’rifati tashkil etadi. Sharq va turkiy-o‘zbek mumtoz adabiyoti islomiy ma’rifatdan nafaqat oziq oldi, balki ayni madaniyat-ma’rifat badiiy ifodasi sifatida o‘zini namoyon qildi. Shu nuqtai nazardan adabiyotshunos olim R.Hodizodaning: “Qur’on nafaqat bizning muqaddas kitobimiz, balki bizning svilizatsiyaning betakror kitobidir. Bizning madaniyatimiz, bizning ilm-fanimiz, bizning adabiyotimiz, bizning san’atimiz, bizning falsafamiz uning ma’no-mohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir”, – degan fikri o‘rinlidir[23.41]. Ma’lumki, islom va uning manbalari o‘zbek mumtoz adabiyoti uchun doimiy ilhom sarchashmasi hisoblanadi. Bu, ayniqsa, o‘zbek adabiyotida nubuvvat ma’rifati va obraz-timsollari talqini masalasida teran namoyon bo’ladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, muqaddas Qur’oni Karimning to’rtadan bir qismi payg‘ambarlar qissalaridan iborat, nubuvvat kalimasi sakson yetti marotaba zikr etiladi. Islomda “Allohga, oxirat kuniga, farishtalarga, kitoblarga, payg‘ambarlarga iymon” farz sanaladi. Bir vaqtida bu talablar nubuvvat ma’rifati hamdir. Shu bilan birga yahudiylik, nasroniylik va islomiyat orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yuzaga keltirgan holat ham nubuvvat ta’limotidir. Shu jihatdan ular ayrim qarashlarda “ibrohimiy dinlar” deb yuritiladi. Bunda yahudiy-nasroniy va arabiq qavmlar tarixi Ibrohim Xalilulloh hayotiga borib taqalishi nazarda tutiladi. Payg‘ambarlik shajarasiga ko‘ra, Odam → Idris → Nuh → Hud → Solih → Lut → Ibrohim → Is’hoq va Ismoil: Is’hoqdan bir shajara → Shuayb → Ayub, ikkinchi shajara → Ya’qub → Yusuf: Muso → Horun → Ilyos → Zulkifl: Dovuddan → Yunus va Sulaymon → Zakariyo → Iso: Ismoildan → Muhammad alayhissalom alohida shajara tarmog‘i sifatida davom etadi va nubuvvatga yakun yasaladi. Demak, Ibrohim Is’hoq va Ismoilga, Is’hoq minglab payg‘ambarlarga, Ismoil Muhammad payg‘ambarga ajdod sanaladi (manbalarda Is’hoq va Ismoil bilan bog‘liq bahslar ham mavjud). Shu bois Ibrohim Xalilulloh “payg‘ambarlar otasi” deb qaraladi va yahudiy, nasroniy, islom “ibrohimiy din” deb yuritiladi. Umumiy zikrdagi 124 ming payg‘ambar ham mana shu shajara davomida keltiriladi va ularning qissalari yoki nomlari qiyomatga qadar pinhon bir tarix sifatida qoladi. Kutubi osmoniyilar, va ayniqsa, Qur’onda qayd etilgan 25 ta payg‘ambar hamda ular qissalari, maqom-o‘rinnari kabi holatlar tavsifi barcha islomiy-ilohiy manbalarda bir-biriga hamohang tarzda keltiriladi. Gap shundaki, manbalarda payg‘ambarlik nabiy va rasul guruhlariga bo‘linsa, ularning rasul guruhi asosan samoviy

kitoblarda zikr etilganlari deb qaraladi. Bu holatlarning badiiy adabiyot, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyoti sahifalarida talqin etilishi ayni manbalarga uyg‘un bo‘lgan poetik manzaralar yaratadi. Bunda payg‘ambarlik qissalaridagi muhim voqelik va hodisalar badiiy detal yoki bir ramziy-majoziy tasvir ifodalarini yuzaga keltiradi.

Tavhid va nubuvvat masalasi tavsifi

Yuqorida qayd etilganidek, nubuvvat islom davriga kelib mukammal bir ta’limotga aylanadi. Qur’onda “Bugun sizga diningizni komil qilib berdik” (“al-yovna akmaltu lakum dinakum”), “va islomni sizga din deb, rozi bo‘ldim” (Moida, 3-oyat) – oyatlari keltiriladi. Bunda, fikrimizcha, avvalo tavhid va nubuvvat kamoli nazarda tutiladi. Islomiy qarashlarda tavhid asosiy o‘rin egallaydi, ma’lum ma’noda islom bilan bir darajada tushuniladi. Yuqorida aytilganidek, Sharq adabiyoti mumtozligi ham tavhid-nubuvvat badiiy ifodasi bilandir. Sharq va G‘arb adabiyotidagi o‘ziga xosliklar haqida gap ketganda, birinchi navbatda, tavhid-nubuvvat Sharq adabiyoti olamshumulligi sifatida ham qaralishi lozim. Manbalarda “barcha payg‘ambarlar yo‘li – tavhid yo‘li”, “islom – barcha payg‘ambarlar dini”, “payg‘ambarlar tavhid va iymon darakchilari” ekanligi darj etiladi. Shunga ko‘ra, nubuvvat dastavval tavhid xabari, din mukammalligi tavhid va nubuvvat takomilidir. Islomda tavhid Haq va haqiqatlar yagonaligini anglatadi. Bu jihatdan islom ma’lum ma’noda yahudiylik bilan “ittifoqdosh” sanaladi. Chunki tarixda monoteizm (yakkaxudolik) ilk bor yahudiylikda aks etgan edi. At-tavhid arabcha “vahhada” fe’lidan olingen bo‘lib, “yagona deb bilmoq”, “bir deb anglamoq” ma’nosini ifodalaydi. “Navoiy asarlari lug‘ati”da: tavhid “1. So‘fiylikda – bitta (yakka) deb bilish, yolg‘izligiga ishonish, yagona deb hisoblash; 2. Tasavvuf ta’limotida – Haqiqatga yetishish, kishi ruhining iloh, ilohiy ruh bilan qo‘silib ketishi, xudoga yetishish, so‘fiylikning beshinchi davri”dir deyiladi[12.584]. U “Allohdan boshqa hech qanday iloh yo‘q”ligi g‘oyasiga asoslanadi. Shuni aytish kerakki, tavhidning ilohiyotchi olimlar tomonidan talqin etilishi Haq borlig‘i: Zot va Sifot namoyoniga binoandir. Masalan, mutaziliylar tavhidda Zot va Sifot ayrolig‘ini tanqid etadi, a’shariylar tavhidni Alloh zoti ajralmas birlikda deb qaraydi, xanbaliylar tavhidni Allohn ni yagona Yaratuvchi va rahnamo sifatida anglash, butun irodani unga topshirish, uning o‘zigagina tayanishda deb biladi. Tasavvufda tavhid insoniy irodaning ilohiyotga qo‘silibishi, Haq haqiqatiga fano bo‘lish (hulul ul-Haq), Haqdan boshqa borliq yo‘qligi maqomiga erishish tushuniladi. Islom ta’limotining barcha jihatlari tavhid asosida shakllanadi. Jahonga mashhur ilohiyotchi Ibn Arabiy tavhidning oxirgi bosqichi “tavhid al-‘mushohada” e’tirofi asosida vahdat al-vujud ta’limotiga asos soladi. Tavhidga binoan, Alloh yagona yaratuvchi, tenggi va sherigi yo‘q, abadiy mavjud, borlig‘i chegara bilmaydi, boqiy, ibrido va intihosiz. U yaratilgan vujud emas, hech qanday yaratilganlarga o‘xshamaydi va biror yaralmish ham unga o‘xshamaydi, zamon va makonga bog‘liq emas, osmondan yuqori va zamindan chuqur, yer va osmon – barchasi unga tegishli, hech kimga, hech nimaga qarashli emas, osmonga chiqish ham, yerga tushish ham unga yaqinlashtirmaydi, ammo barcha narsa va hodisalarga juda yaqindir, insonga qon tomirlari qadardir (“Biz unga jon tomiridan ham yaqinroqmiz”. “Qof” surasi), yaqinlikda jismoniyaqinlikka, borlig‘i vujudiy borliqqa o‘xshamaydi, makondan yuqori, vaqtidan yiroq, yo‘qlikdan oldingi borliq, nuqsonlardan xoli, o‘lim daxl qilmaydi, o‘zi yaratadi, kashf qiladi, barcha narsa-hodisalarni biladi, zamin va samoda biror chang ham uning irodasidan tashqarida sodir bo‘lmaydi, “yulduz va oysiz kechalarda qora toshda yuruvchi qora chumolini” va osmon ostida harakat qiluvchi har qanday hashoratni ko‘rib turadi, “...siz oshkora gapirsangiz ham (va yoki xufyona gapirsangiz ham U zotga barobardir). Zero, U sirni ham, eng maxfiy narsalarni ham bilur” (“Toha” surasi). Olamda hech bir narsa: ko‘rinadigani ham, ko‘rinmaydigani ham Alloh irodasi, qaroridan tashqarida sodir bo‘lmaydi,

hech kim uning iqrori va irodasini o‘zgartira olmaydi, “biluvchi, eshituvchi, ko‘rvuchi”(“Haj” surasi)dir. Injili Sharifda aytiganidek, “...shon-shuxrat, izzat-ikrom, kuch-qudrat...ga loyiq... Butun borliqni yaratgan... Hamma narsa... irodasi ila vujudga keladi” [10.584]. Unga sokin bo‘lsa ham eshitilmaydigan ovoz, yashirin bo‘lsa-da ko‘rinmaydigan narsa yo‘q, eshitishi uchun masofa, ko‘rishi uchun qorong‘ulik to‘sinq bo‘lmaydi. Qur’on, Tavrot, Injil, Zabur – o‘z elchilar orqali vahiy etgan kitoblari va Haqligi uchun dalolatdir, harakatida dono, qarorida adolatlidir. O‘zidan boshqa aql va his bilan anglanadigan barchasi: inson, jin va farishtalar, yer va samo, jonzod, o‘simlik va tog‘u toshlar – barchasi yo‘qdan bor etgan mavjudliklaridir. Tasavvuf adabiyotida tavhid alohida maqom sifatida qaraladi. Masalan, Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida “*Tavhid vodiysining ta’rif*”ni keltiradi. Unda tavhid “Mantiq ut-tayr” kabi yetti vodiyning (talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tavhid, hayrat, faqru fano) beshinchisi sanaladi. Shu o‘rinda aytish lozimki, Sharq adabiyotida “qush tili-nutqi, munozarasi” turkumi an’anasiga ham nubuvvat ta’limoti asos bo‘lgandek ko‘rinadi. Chunki nubuvvat tarixida ko‘pgina masalalar qissalar talqinida uchraydi. Misol uchun qalam, otning xonakilashtirilishi va boshqalar, xususan, “qush tili” masalasi ham ilk bora Sulaymon payg‘ambar qissasida keltiriladi. Unda turkumda bo‘lgani singari Hudhud obrazi asosiy o‘rin tutadi. “Qush tili” turkumida qushlarga Qof tog‘ida yashovchi Simurg‘ haqida Hudhud xabar bergani kabi Sulaymon payg‘ambar qissasida Sabo mamlakati malikasi Bilqis haqida xabarni Hudhud keltiradi. Shuningdek, “qush tili” ilmini Sulaymon bilishi darj etiladi. Sharq mumtoz adabiyotida “Sulaymon va Bilqis” mavzusida ishqiy asarlar ham yaratilgan edi. Shu bois tasavvuf adabiyoti ramziy ifoda qonuniyatiga ko‘ra, “qush tili” turkumi badiiy majoz va ishoraviy talqin sifatida Sulaymon qissasiga tayanilgan degan fikr uyg‘otadi. Endi masalaga qaytilsa, Alisher Navoiy talqinicha, tavhid – vahdat sirridir, barchasini tafrid-tajridda, birlikda deb bilishdir:

*Vodiyi Tavhid ondin so ‘ngra bil,
Fard o ‘lub tajrid ondin so ‘ngra bil.
Chun bu vodiy sori sayring qo ‘ydi gom,
Fardu yaktolig ‘sanga bo ‘ldi maqom.
Chun bu vodiyg ‘a nihoyat topti sayr,
Munda bir bil yuz tuman ming bo ‘lsa tayr.
Borchag ‘a komu havo tafrit o ‘lur,
Borchag ‘a lahnu navo tafrid o ‘lur.
Bu ravishlarg ‘a chu yetti ul kashish,
Borchag ‘a birlikda gum bo ‘lmoqdur ish.
Birda birdin hosil o ‘ldi bir adad,
Yo ‘q xiradqa munda dam urmoqqa had.
Chun sening ollingda tushti bo ‘yla pech,
Bilki ermish birdin o ‘zga barcha hyech.
Bir bo ‘lu, bir ko ‘ru, bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila.
Ikkilik bu yo ‘lda ahvalliqdurur,
Sirri vahdatdin mu ‘attalliqdurur”.*

Tavhid ma’rifiy qarashlarda yuqori daraja kasb etganligi badiiy-estetik talqinlarda ham o‘z ifodasini topadi. Unda tavhid Haq borlig‘i, ilohiyot va bashar olami birligini anglatadi, nubuvvat esa undan keyin va uni anglatuvchi maqom sifatida e’tirof etiladi. Nubuvvat tasavvuf ilmida “Allohdan yetgan tablig”, “Haqdan kelgan xabar”, “malakdan kelgan ilohiy bilim” sifatida baholanadi. Imom G‘azzoliy fikricha, “nubuvvat xos insonlar hollaridan bir hol bo‘lib, shu hol

ichida insonda ma’naviy bir ko‘z ochiladi. Bu ko‘zda bir nur bo‘lib, u nur bilan g‘aybni va aql idrok eta olmaydigan narsalarni ko‘rishga erishiladi”. Haqning nubuvvat etilgan haqiqatlari “kutubi osmoniy” inson ma’naviy-axloqiy kamoloti uchun mas’ul ilohiy manbalardir, adabiyotlardagi “nubuvvat keldi”, “risolat tushirildi” iboralari qo‘llanganda esa shu kitoblarning indirilishi nazarda tutiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerak, manbalarda payg‘ambarlarga nubuvvat kelishi hodisasining qirq olti turi qayd etiladi (“*Solih tush – nubuvvatning qirq olti juzidan biridir*”). Din va payg‘ambarlik ta’limoti nuzul qoidalari nihoyatda jiddiy masala hisoblanadi. Kalom ilmida “vahiy holati” alohida sirli ilm sohasi sifatida qaraladi. U inson tafakkuri va ongidan xorijda bo‘lgan ilohiy hodisa sanaladi. Aytish lozimki, iyomon yoki botil nubuvvat-vahiy masalalari e’tirofida namoyon bo‘ladi. Shundan “vahiy asoslari” usuli din, payg‘ambarlik ta’limoti, sunnat, shariat va boshqa masalalarning birinchi qatorida turadi. Manbalarga ko‘ra, “vahiy” lug‘aviy jihatdan “inmoq”, “tushmoq” ma’nolarini bildiradi. Injilda: “...Xudo kishiga ko‘rintiradigan g‘ayritabiyy hodisalar yoki eshittiradigan kalomlar” sifatida sharhlanadi [10.2]. “Navoiy asarlari lug‘ati”da “vahiy arabcha, payg‘ambarlarga Jabroil farishta vositasi bilan Xudodan yuborilib turgan xabar; vahiy nozil bo‘lmoq – vahiy (Xudo so‘zi) inmoq, tushmoq”, - deb izohlanadi[12.147]. Ayrim manbalarda Allohdan payg‘ambarlarga yuborilgan har qanday narsani anglatadi. U lug‘atlarda ishorat, kitobat, noma, xat, maktub, xabar, maxfiy kalom, maxfiy xabar, yashirin so‘z, Xudodan xabar va ilhom, Xudoning payg‘ambarlariga ilqo qilingan narsalari, Xudoyi Taolo tomonidan boshqa suratda anbiyolarga ilqo (tushiriladigan) qilinadigan so‘z yoki yozuv kabi ma’nolarda izohlanadi va istilohiy ma’noda Xudoning shar’iy kalomi deb tushuntiriladi. Payg‘ambarga vahiy nozil bo‘lishi hodisasi “zohiriyl vahiy” va “botiniy vahiy”ga ajratiladi. Manbalarda zohiriyl vahiyning uch xil turi darj etiladi. Birinchisi zikr qilingani bo‘lsa, ikkinchisi farishta vositasida bo‘lib, bunda payg‘ambar faqat eshitadi, ya’ni farishta ko‘rinmasdan payg‘ambar qalbiga xabarni yetkazadi. Qur’oni Karim ham faqat farishta tilidan eshitiladi, o‘rtada boshqa bir muloqot bo‘lmaydi. Shunday paytlarda Muhammad alayhissalom “Ruhul-quds mening qalbimga soldiki”, - deb gap boshlaganligi aytiladi. Uchinchisi, ilhom bu barcha qismlarga mutlaq dalil bo‘luvchi va avliyolarning ilhomidan farqli holatdir. Endi botiniy vahiyga kelsak, u ra’y va ijtihoda asosida hosil bo‘ladi. Demak, payg‘ambarlarga tushiriladigan hodisa - “vahiy”, payg‘ambar bo‘limgan odam bilan farishta so‘zlashishi - “kashf”, g‘aybiy masdardan tushgan ilm - “ilhom” deb yuritiladi. Bunda vahiy – anbiyolar, kashf – avliyolar, ilhom – insonlar ulushi deb qaraladi. Payg‘ambarlar orqali ilohiy so‘zlar, valiyalar vositasida hikmatlar hosil bo‘ladi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “inson qalbida: 1. Shayton vasvasasi 2. Nafs g‘ulg‘ulasi 3. Farishta xotiraga soladigan narsalar 4. Rabboniy ilhom paydo bo‘lishini” maxsusus tahlillarda qayd etadi[14.145]. Demak, vahiy Alloh yuboradigan xabarni vositali yoki vositasiz ravishda elchilarga yetkazilishi tushuniladi. Bunda vahiy-xabar payg‘ambarlarga Jabroil farishta orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkaziladi va o‘z navbatida payg‘ambar tomonidan xalqqa uzatiladi. Bu xalqa qat’iy ishonch va imon orqali yuz beradi. Shu mas’uliyatga qodir shaxs payg‘ambar sifatida tanlanadi. Qur’oni Karim Sho‘ro surasida: “Biron odam uchun Alloh unga so‘zlashi joiz emas, magar vahiy-ilhom orqali, yo biror parda to‘siq ortidan yoki biron elchi-farishta yuborib, o‘sma (farishta Allohnинг) izni-ixtiyori bilan o‘zi xohlagan narsani vahiy qilishi orqali (so‘zlar). Albatta, u yuksak va hikmat egasidir”, – deyiladi[20.361]. Bu tasdiqqa ko‘ra, “nubuvvat-xabar”: birinchidan, “vahiy-ilhom”, ikkinchidan, “parda ortidan”, uchinchidan, “elchi-farishta” orqali indirilishi ta’kidlanmoqda. Ko‘rinadiki, islom ilohiyotida nubuvvat-vahiy inson qalbi va ruhiga yo‘l olgan fikr, ya’ni “ilhom” ma’nosida keladi. U ikkinchi bir holatda, ya’ni “tush” shaklida ham namoyon bo‘ladi. Tush “ro‘yo” so‘zidan olingan bo‘lib, uyquda ko‘riladigan narsa-hodisalarga

aytiladi. Ayrim lug‘atlarda “ro‘yo – tush ko‘rmoq, ko‘rilgan tush, tushda ko‘rilgan narsalar, payg‘ambarimizga tushirilgan vahiy shakllaridan biri, ya’ni o‘ngidan keladigan tushlar”, - ma’nolarida izohlanadi[14.280]. Ayrimlar uni “solih tush” va “mahzun tush” sifatida ikkiga bo‘ladi. Bunda mahzun tush – shaytoniy, solih tush esa rahmoniy, ya’ni “nubuvvatning qirq olti juz’idan biri” deb ta’riflanadi. Masalan, shunday bir solih tush Ibrohim alayhissalom hayotida yuz beradi. Bu haqda Qur’oni Karim Va-Soffot surasida shunday oyatlar nozil etiladi: “Bas, biz unga bir halim o‘g‘ilning xushxabarini berdik. Endi qachonki u (bola Ibrohim) bilan birga yuradigan bo‘lg‘ach, (Ibrohim): “Ey o‘g‘ilcham, men (ha deb) tushimda seni (qurbanlik uchun) so‘yayotganimni ko‘rmoqdamen. Endi sen o‘zing nima ra’y – fikr qilishingni bir o‘ylab ko‘rgin”, degan edi. U aytdi: “Ey otajon, senga (tushingda Parvardigor tomonidan) buyurilgan ishni qilgin. Inshaaloh meni sabr qilguvchilardan topursan”. Bas qachonki ikkisi ham (Allohnинг vahisiga) bo‘yinsunib, (Endi Ibrohim o‘z o‘g‘li Ismoilni qurban qilish uchun) peshonasi bilan (yerga) yotqizgan ediki. Biz unga nido qildik: “Ey Ibrohim, darhaqiqat sen (ko‘rgan) tushingni rost – bajo qilding”. Albatta, biz chiroyli amal qiluvchilarni mana shunday mukofotlarmiz. Albatta, bu (ya’ni, Ibrohimning o‘z o‘g‘lini qurban qilishga buyurishi) ochiq-ravshan imtihondir, xolos. Biz (Ismoilning) o‘rniga (Ibrohimga) katta bir (qo‘chqor) so‘yishni – qurbanliqni evaz qilib berdik (ya’ni katta bir qo‘chqorni jannatdan tushirdik)” (O’sha manba 329-bet). Xullas, tush hodisasi boshqa payg‘ambarlar, jumladan, Muhammad payg‘ambar hayotida ham bir necha bor bo‘lib o‘tadi. Shu bois “payg‘ambar tushi – vahiy” (ro‘yo al-anbiyo – vahiy) deyiladi. Shu boisdan badiiy talqinlarda nabiylar timsollari tavsifida tush epizodiga alohida e’tibor qaratiladi. Hadislarda tush “nubuvvatdan keyin ilohiy olamda qoladigan sirli hodisa” ekanligi qayd etiladi, badiiy asarlarda ham muhim poetik vazifa bajaradi. Bunda tush ramziy ifoda bo‘lib, uning muqarrar amalga oshishi xarakter tabiatidagi ilohiy bir holni anglatadi. Bu holatlar mumtoz va tasavvuf adabiyoti, she’riyatida turfa ramziy-majoziy ifodalar bilan g‘oyat jozibador ravishda talqin etiladi.

Manbalarda nubuvvatning “tush” dan tashqari, “parda ortidan” kelishi hodisasi ham e’tirof etilib, u payg‘ambarning Alloh ovozini eshitishi tarzida ro‘y beradi. Bu payg‘ambarlik tarixida kam uchraydi. Unga Muso alayhissalomning Tur tog‘ida Alloh bilan suhbati (“Endi qachonki uning oldiga yetib kelgach, u muborak joydagи vodiyning o‘ng tarafidan – daraxtdan unga nido qilindi: “Ey Muso, albatta, Men barcha olamlar Parvardigori Allohdirman” – “Qasas” surasi) va Muhammad Mustafo payg‘ambarning me’roj voqeasi (“Unga (bu vahiyini) bir kuchga to‘lgan Sohibi qudrat (ya’ni Jabroil alayhissalom)” ta’lim bermishdir. Bas u (avval) yuksak ufqda (ko‘rinib), tik turdi. So‘ngra yaqinlashib, pastladi. Bas, (Muhammad alayhissalomga) ikki kamon oralig‘ida yo (undan-da) yaqinroq bo‘lib” – “Va-n-najm” surasi) yorqin isbotdir.

Sharq mumtoz adabiyotida Muso Kalimullohning Alloh bilan suhbati va Muhammad Mustafo alayhissalom me’roji epik-lirk talqinlari ko‘p bora keltiriladi. Tasavvuf adabiyotida suhbat – tajalli va diyordi, me’roj – vasl va qurb ifodasi sifatida talqin etiladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida me’roj talqini alohida mavzu hisoblanadi. Bu mavzu nubuvvat ma’rifati talqini bilan bog‘lanadi va umuman mumtoz adabiyot poetik olami uchun nihoyatda teran poetik ifodadir. Unda payg‘ambar alayhissalom tarixi bilan bog‘liq tun kechasida amalga oshirilgan sayohat tavsif etiladi. Me’roj kechasi haqida Qur’oni Karimda nozil etilgan oyatlar mavzuning ilk manbasi sanaladi. Bu hodisa keyinchalik badiiy ijodda keng sharhanadi (tafsir) va talqin (ta’vil) etiladi. Tafsirda me’roj voqeasi chuqur bayon etilgan bo‘lsa, ta’vil tufayli bu hodisa chuqur irfoniy talqin ifodasiga aylanadi. Ayrim qarashlarda me’roj mo‘jiza sifatida qayd etilsa, ba’zilar “talab” deb baho beradilar. Agar Qur’onda payg‘ambarlik mo‘jizalari e’tirofi asnosida Muhammad payg‘ambar (s.a.v) bilan bog‘liq mo‘jizalar qayd etilmaganligi hisobga olinsa, mo‘jiza

tushunchasini keng ma’noda anglash lozim bo‘ladi. U ojiz qoldiruvchi, aql bovar qilmas hodisa bo‘lish bilan birga Haqqa yaqinlik maqomini ham bildiradi. Sharq adabiyoti singari turkiy tasavvuf va o‘zbek mumtoz adabiyotida me’roj tavsifi hamda talqini turli janriy shakkarda o‘z ifodasini topadi, xilma-xil yo‘nalishlardagi “noma” (shohnoma, ishqnama, pandnama, qushnama...) an’analari singari me’roj mavzusi ham o‘ziga xos “noma” darajasiga ko‘tariladi. Jumladan, Ahmad Yassaviy “Hikoyati me’roj” asari 24 banddan iborat, Rabg‘uziy “An-nabiy sallallohu alayhi va sallamning me’roji” epik qissa janrida yaratilgan. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostoni beshinchi na’tida 53 bayt “Me’roj kechasi ta’rifi...”, “Farhod va Shirin”da “Ul shohsuvor vasfi...” deb boshlanadigan 69 bayt me’roj tavsifi, “Layli va Majnun”da 92 bayt “Ul musofiri bavodipaymo, balki ul rokibi samovotpaymo me’roji kechasinging ta’rifi”, “Sab’ai sayyor”da me’roj tavsifi 43 bayt, “Saddi Iskandariy”da “Ul humoyi balandparvoz tayronining sur’ati ta’rifidakim, me’roj shabistoni...” 121 bayt va “Lison ut-tayr” dostonida “Ul risolat Qofi Anqosining balandparvozlig‘i va mahbubi haqiqiy vaslig‘a yetib...” kabi me’rojlarni aytish mumkin. Alisher Navoiy dostonlari ichida katta hajmlisi “Saddi Iskandariy” bo‘lgani kabi me’rojlarda ham ko‘lamdori shu dostondagi me’rojdir. Bundan tashqari butun mumtoz she’riyatda bu hodisa ifodasiga ishora etish, me’roj motivi orqali jozibali badiiy-estetik manzaralar yaratish an’anasi mavzuning nihoyatda keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi. Bu mavzu epik tavsifi, xususan, “Qisas ul-anbiyo”larda ifodalanishi ko‘proq tafsirlarga asoslangandek fikr uyg‘otadi. Misol uchun Rabg‘uziy tafsifida ham payg‘ambar me’roji xuddi tafsirlarda bo‘lgani singari butun tafsiloti bilan aks ettiriladi. Unda Rasulullohning tunda Makkadan Bayt ul-Muqaddasga olib borilishi, ko‘ksini yorib yuragini iymon va hikmat bilan to‘ldirilishi, Buroqda Jabroil bilan samoga ko‘tarilishi, yetti qavat osmonga chiqarilishi, me’roj hikmati, yetti samoda o‘tmish payg‘ambarlari bilan uchrashishi, “maqomi mamduh”ga erishishi, me’roj sababiyu maqsadi, hol va ta’riflari, tun qadri va qimmati, Muhammad alayhissalomga bu tunda yetti qavat osmon va yer, jannat, do‘zax, dunyo, kavnayn olami ko‘rsatilganligi badiiy tasvirlar batafsil ta’rif va tavsif etiladi, adabiy sohalar rivoji tufayli me’roj mavzusi ham o‘ziga xos adabiy-ma’rifiy hodisaga aylanadi, badiiy ijod olamida lirik-epik talqinlar uchun ilhom va ruh baxshlovchi mavzu bo‘lib qoldi. Me’roj mavzusi mumtoz adabiyotimizda majozan ham talqin etiladi. Unga binoan payg‘ambar alayhissalomning Haq borlig‘iga erishuvi oshiqning ma’shuqa vaslini qozonishi deb talqin etiladi. Alisher Navoiy uni “qoyim maqom” deb ta’riflaydi. Masalan, “Sab’ai sayyor” dostonida me’roj “oshiq ma’shuq bilan visol topgani, orada faqat Xoliq qolib, maxluq yo‘qolgani, yor mayjudu ag‘yor yo‘qligi, yordan boshqasi qolmaganligi” qayd etiladi //Toptilar vasl oshiqu ma’shuq, Borcha Xoliq, aroda yo‘q maxluq. Yor mayjudu anda yo‘q ag‘yor, Yordin o‘zga, balki yo‘q dayyor//. Shu o‘rinda aytish kerakki, Sharq mumtoz adabiyotida ishq mavzusi talqinlarida oshiq va ma’shuqani ifoda etuvchi an’anaviy majoziy timsollar guruhi keltiriladi. Ularni lirikada “gul va bulbul”, “sham va parvona”, “temir bo‘lagi va olov”, “xum va dengiz” singari ramziy timsollar ifodalasa, epik talqinlarini “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Vomiq va Uzro”, “Yusuf va Zulayho” kabilar tashkil qiladi. Bu lirik-epik syujetlarda majoziy ma’noda mahbuba dardida o‘rtanish, toblanish, intilish, hajr kabi motivlar yuksak ruhda tasvirlanadi va ular vasl yo‘lida turli ramziy-badiiy ifodalar sanaladi. Gap shundaki, tasavvuf va mumtoz adabiyot olamida vasl ifodasini me’roj talqini singari anglatadigan boshqa biror tamsil uchramaydi. Shuning uchun Alisher Navoiy “me’roj”larida “oshiq talabi visol”, “do‘st vaslini qizg‘onish”, “o‘zlikdan o‘zni chiqarish” masalalariga e’tibor qaratiladi. Shunga ko‘ra, nubuvvat maqomi tasavvuf va mumtoz adabiyotda vasl, diydor, vahdat haqiqatlari talqini uchun asos sanaladi. Ibrohim Haqqulov fikricha, “tasavvuf, ma’lum bir ma’noda, nubuvvat ta’limoti va ma’rifatiga sodiqlik”[22.34]. Kezi kelganda qayd etish lozimki,

mumtoz yoki tasavvuf adabiyotida nubuvvat haqiqati ifodalari haqida gap ketganda “nubuvvat ta’limoti va ma’rifatini” yaxlit bir maqom sifatida anglash talab etiladi. Chunonchi badiiy ifodalarda, xususan, Alisher Navoiyda ham nubuvvat “silsila”, “xalqa”, “doira”, “gulshan”, “bo‘ston”, “xayl”, “sipehr”, “bahr” tarzida tavsiflanadi va masalaning barcha jihatlari qamrab olinadi. Bu holatlar tavsifi mumtoz adabiyotimizda ruh va ko‘ngil bedorligi o‘ziga xos mafkura darajasiga ko‘tarilganligini ko‘rsatadi. Bu o‘zbek mumtoz adabiyotida, birinchidan, Muhammad payg‘ambar ma’rifat va oriflik timsoli bo‘lib kelishi, ikkinchidan, me’roj talqinlaridagi bedorlik ifodalarida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunga misol sifatida payg‘ambarlik davrlarida ommaviy ofatlar sodir bo‘lishi va sabablari haqidagi qissalarni keltirish mumkin. Manbalarga ko‘ra, “osmoniy kitoblar” indirilgach, ommaviy ofatlar to‘xtatiladi. Bu “Qisas ar-Rabg‘uziy” Muso qissasida zikr etiladi. Biroq bashariy ofat sifatida jaholat davom etadi. Mumtoz adabiyotda Muhammad payg‘ambar siymosi mana shu johillik aksi o‘laroq ma’rifat timsoli sifatida talqin etiladi, Muhammad alayhissalom diniy va dunyoviy amallar kamoli deb qaraladi. Bu insondan dunyo hayotida doimo bedor ko‘ngil va ma’rifat egasi bo‘lishni talab etadi. U tasavvuf adabiyotida “basirat” deb yuritiladi. Misol uchun Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonida payg‘ambar basiriy sifatlari haqida shunday misralar bitadiki, bu motiv mutassil ruhoni yug‘oqlik va ma’naviy bedorlikka chorlaydi.

*Dahr sho ‘ru sharridin osuda,
Ko ‘ngli uyg ‘og ‘u ko ‘zi uyquda.*

Manbalarda ta’kidlanishicha, nubuvvatning yana biri “elchi-farishta” vahiyida namoyon bo‘ladi. Bunda Alloh bilan payg‘ambar aloqasi farishta orqali yuz beradi. Bu nubuvvat sirrida payg‘ambarlar Jabroil alayhissalom ovozini eshitadi, ba’zan o‘zini ko‘radi. Nubuvvatning “elchi-farishta” orqali sodir bo‘lishi islam nubuvvat ta’limotining o‘ziga xos komilligini ham bildiradi. Qur’onda Jabroil alayhissalom Ruh-ul quds (Muqaddas Ruh), Ruh-ul Amin (Ishonchli Ruh), Ruhu-Illo (Alloh ruhi) kabi nomlarda keltiriladi. Raxmatulloh qori Obidov “Payg‘ambarlarga faqat ilohiy vahiy kelsa “nabiy”, ilohiy vahiy bilan birga alohida shariat yuborilgan bo‘lsa “rasul” deyiladi. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga qirq yoshlarida nabiylik, keyinroq esa rasullik keldi”, – deydi[16.142]. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, tasavvuf adabiyotida vahiy nazariga yaqin tarzda “ibn-ul vaqt” tushunchasi ishlataladi. Alisher Navoiy bu holatni: “*Fano ahlini o ‘z vaqtining podshohi debtur, balki vaqt podshohini aning gadoyi*”, - ya’ni, fano ahli o‘z vaqtining podshohi yoki vaqt podshohi ahli fanoning gadoyi, - deb ta’riflaydi. Bu maqom sukr holi, ya’ni lahzada yuz beradigan ruhiy jarayon sanaladi. Bunda solik o‘zida Haqdan kelgan ilohiy fayz va zavqni his etish holiga ega bo‘ladi. U tasavvuf va mumtoz she’riyatda “la’li lab” obrazida ham ifoda etiladi. Bu ilohiy ilhom payg‘ambarga vahiy kelgan damga o‘xshatiladi. Ba’zan solik tabiatida yuz beradigan bunday farahli onlar “Anal-Haq”qa o‘xshash fikrlarni ham keltirib chiqargan. Bu daqiqqa solikning zavq-ishtiyoyq holati deb baholanadi va tasavvufda komronlik sifatida anglanadi. Bu lahzada sodir bo‘ladigan tuyg‘uga teng vaqt – abadiylik, mangulik deb tushuniladi. Mumtoz va tasavvuf adabiyotida doimiy an’ana sifatida tasvirlanadigan soqiy, may, jom timsollari ham bir xususiyatiga ko‘ra nubuvvat haqiqatlari badiiy-ramziy ifodasidek fikr uyg‘otadi. Bunda timsollar Haq ilohiy ma’rifati nabiy qalbida namoyon bo‘lishi, ya’ni nubuvvat haqiqati uchun ham o‘ziga xos bir majoz ifodasini yuzaga chiqaradi. Shuni aytish kerakki, islomiy manbalarda Muhammad alayhissalomga Jabroil farishtaning uch xil tarzda namoyon bo‘lganligi aytiladi. Birinchidan, bu hol o‘ziga xos ovoz shaklida bo‘lib, xuddi qo‘ng‘iroq jarangidek yoqimli bir sas eshitiladi. Dastlabki onlarda Muhammad Rasululloh ham gap nima haqda ekanligiga tushunmaydi, vaqtiki, “vahiy-xabar” ekanligini fahmlaydi. Bu ovoz Jabroil alayhissalomning

qanot qoqishidan ekanligi bilinadi. Ba’zi ulamolar Qur’on oyatlariga tayanib, bu ovozni asal arining hosil yig‘ishiga qiyoslashadi. Chunonchi, Nahl surasida: “(Ey Muhammad), Parvardigoringiz asalariga vahiy – amr qildi: “Tog‘larga, daraxtlarga va (odamlar) quradigan inlarga uya solgin. So‘ngra turli mevalardan yeb, Parvardigoring (sen uchun) oson-qulay qilib qo‘ygan yo‘llardan yurgin!” Uning qornidan odamlar uchun shifo bo‘lgan alvon rangli ichimlik-asal chiqur. Albatta, bu ishda tafakkur qiladigan qavm uchun oyat-ibrat bordir”, – deyiladi. Ko‘rinadiki, asalari faoliyati “amri vahiy” tufaylidir. Bu holat vahiy taqqosi uchun nihoyatda jozibador va mantiqli qiyosdir. Bunda asalarining eng chiroyli gullardan eng totli va foydali mahsulotlarni keltirishiga ko‘ra, “vahiy holati” asalari xizmatiga taqqoslanadi. Ikkinchidan, Jabroil farishta Muhammad payg‘ambarga odam suratida namoyon bo‘ladi. Bunda Jabroil Rasulullohga favqulodda go‘zal sahobalardan biri shaklida ko‘rinadi. Uchinchidan, Jabroil farishta o‘z qiyofasida namoyon bo‘ladi. Muhammad alayhissalomga Jabroil farishtaning odam suratida ko‘rinishi ikki marotaba, birinchisi zaminda (Makka) va ikkinchisi samoda (Me’roj) kuzatiladi. Yuqoridagilardan aytish mumkinki, ilohiy vahiy yetti xil: 1. tush ko‘rish shaklida; 2. qalbga quyilish tarzida; 3. qo‘ng‘iroq jaranggidek ovozda; 4. farishtaning inson suratiga kirgan shaklida; 5. Jabroilning o‘z samoviy qiyofasida; 6. parda ortidan gapirish; 7. so‘zlashish (ba’zan tushda) tarzida namoyon bo‘ladi. Bu aloqalar ta’rifi ulamolar tomonidan turlicha talqin etiladi. Islom ilohiyotchilari Qur’oni Karim Muhammad alayhissalomga Jabroil farishta orqali nozil qilinganligini aytadilar. Shu bilan birga Tavrot – Musoga, Zabur – Dovudga, Injil – Iso alayhissalomga Jabroil orqali yuborilganligi Qur’oni Karim oyatlarida tasdiqlanadi. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni na’tida “Kutubi osmoni”larda Rasululloh nomi zikr etilganligi, Haq Musoga “Tavrot”ni bayon etgani, Dovudga “Zabur”ni, Isoga “Injil”ni nozil etgani, Muhammadga har bir so‘zi mo‘jiza bo‘lgan “Kalom” yuborganligi qayd etiladi. “Tavrot”da Muhammad haqida qisqa fikr bayon etilgani, “Zabur”da Mustafo mo‘jizalari qayd etilgani, “Injil”da sifatlariga ta’rif berilgani – xullas “kutubi osmoniy”larda Muhammad Rasululloh to‘g‘risida xabarlar keltirilganligi ta’kidlanadi:

*Chu Musog‘a “Tavrot” etib Haq bayon,
Sanga ul bayon ichra mu’jiz ayon.
Bo ‘lub chunki Dovud qismi “Zabur”,
Sening mu’jizing anda aylab zuhur.
Chu Isog‘a “Injil” nozil bo ‘lub,
Haq anda sifotingg‘a qoyil bo ‘lub.
Kalomeki sendin topib intizom,
Aning lafz bar lafzi mu’jiznizom.
Nechakim kutubi osmoni kelib,
Borisinda sendin nishone kelib.*

Shu bilan birga barcha kitoblar manbai va yaratiqlar taqdiri bitilgan “al-Lavh al-Mahfuz” ham e’tirof etiladi. Ayrim manbalarda o‘tmish payg‘ambarlariga ilohiy kitoblar bir damda va faqat Muhammad alayhissalomga qariyb chorak asr davomida nozil etilgan deyiladi. Bu nubuvvat islom davriga kelib barcha masalalarda komil darajaga erishganligini bildiradi. Qur’on va boshqa muqaddas kitoblar ham “Laylat-ul’ qadr” (qadr kechasi, musulmon oy kalendarining to‘qqizinchiligi, ramazon oyi yigirma yettinchi kechasi) kunida tushirilganligi zikr etiladi. Shuning uchun bu oy va kecha muqaddas hamda qadr hisoblanadi. Qadr kechasi mumtoz asarlarda doimiy ravishda olqishlanadi. Jumladan, Rabg‘uziy me’roj kechasini “bu tun – shu tun” deb sharaflaydi. Qur’onning Qadr surasida: “Albatta, Biz u(Qur’on)ni qadr kechasida nozil qildik. (Ey

Muhammad), qadr kechasi nima ekanligini siz qayerdan bilar edingiz. Qadr kechasi ming oydan yaxshiroqdir. Un(kecha)da Farishtalar va Ruh (Jabroil alayhissalom) Parvardigorlarining izni-ixtiyorida (yil davomida qilinadigan) barcha ishlar bilan (osmondan zaminga) tushurlar. U (kecha) to tong otgunicha tinchlik – omonlikdir”, - deyiladi [20.515]. Sohaviy lug‘atlarga ko‘ra, ramazon – arabcha “rumuz” so‘zidan olingen bo‘lib, “yomg‘ir” ma’nosini bildiradi. Shu bois islom olamida ramazon oyi ramziy ma’noda “qalb va ruh yuviladigan oy” sifatida qadrlanadi. Qur’onda nubuvvat (profetologiya) masalasini maxsus tadqiq etgan olima A.R.Gaynudinova: “Qur’onda “rasul” termini “nabiy” terminiga qaraganda ko‘p bora ishlatiladi. Qur’on matnida “rasul” birlik va ko‘plik sonda 331 marta, “nabiy” esa 87 marta qo’llanadi. Nabiy Bibliya va Qur’on uchun umumiy termindir. Bundan ko‘rinadiki, Qur’oni Karimda nabiylardan ko‘ra, rasullar tarixiga e’tibor ko‘proq qaratiladi”, – deydi [7.24]. Demak, Qur’oni Karimda zikri kelgan payg‘ambar siymolar rasullar qissasi va hissasiga to‘g‘ri keladi.

Adabiyotshunos Sayfiddin Rafiddinov nubuvvatning ikki asosiy tamalini qayd etadi: “Birinchisi, ularga Olloh tarafidan laduniy ilm, saviya, farosat beriladi. Odatda, payg‘ambarlar madrasaga o‘qib, mehnat qilib, tajriba orttirmaydilar, ikkinchisi, insonlarga payg‘ambarlik vazifasini yetkazish quvvati va qobilyatiga ega bo‘ladilar, har kim ham bunday og‘ir va mas’uliyatlari vazifani bajara olmaydi” [17.45]. Manbalarda payg‘ambarda shart bo‘ladigan xislatlar: shaxsiy erkinlik (tobe emaslik), aql va idrok, jismoniy kamchiliklardan (ko‘r, kar singari) xolilik, gunohdan yiroqlik kabi ellikka yaqin ratsional (hayotiy) sifatlar qayd etiladi. Ular nabiylik tavsiflari ham sanaladi. Bu sifatlar ulug‘ ijodkorlar asarlarida, xususan, Alisher Navoiy dostonlarida nihoyatda jozibador ta’rif etiladi. Shu tariqa payg‘ambar siymolarga xos bashariy-iloziy xislatlar muqaddas kitoblar, xususan, Qur’oni Karimda batafsil qayd etiladi. Bular Sharq, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyoti g‘oyaviy-badiiy olamida ilohiy aqida sifatida chuqr samimiyat, iyomon bilan qabul qilinadi va payg‘ambar siymolar komil inson sifatida tavsif etiladi.

Xulosa

Ko‘rinadiki, nubuvvat haqiqati ilohiy kitob - Qur’oni Karimda g‘oyat teran ifoda etiladi. Boshqacha aytilganda, nubuvvatning namoyon bo‘lish asoslari muqaddas Qur’on bilan isbot etiladi va bu haqiqatlar dunyo tamadduni tarixida nihoyat katta o‘rin tutadi. Ma’lum bo‘ladiki, nubuvvat dinni, va aksincha, din nubuvvatni vujudga keltiradi. Islom madaniyati nubuvvat ma’rifati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uni anglash badiiy adabiyotda nubuvvat haqiqatlari va obrazlari talqini masalalarini xolis idrok etish bilan birga mumtoz badiiy ijod mohiyatini chuqr tushunishda nihoyat darajada muhimdir. Turkiy-o‘zbek mumtoz adabiyotida nubuvvat ma’rifati talqini islom ta’limotining umuminsoniy qarashlari badiiy ifodasi sifatida ko‘rinadi. Sharq, xususan, turkiy-o‘zbek adabiyoti mumtozligi nubuvvat haqiqatlari badiiy talqinlarida namoyon bo‘ladi. Nubuvvat ma’rifati ifodasi badiiy ijodda ezgu tuyg‘ular ifodasi, qalb tarbiyasi va ruh harorati bo‘lib xizmat qiladi. Bir so‘z bilan aytilganda, nubuvvat – ruhoniylari va bashariy poklik, insoniy halollik, ma’naviy va axloqiy go‘zallik ifodasi hisoblanadi. Uning o‘zbek mumtoz adabiyotida mavzu va motiv, timsol va obraz sifatida tavsif etilishi natijasida o‘ziga xos badiiy-estetik olam yuzaga keladi. Xullas, mumtoz adabiyotda tavhid va nubuvvat masalalari janriy shakllar ifodasi, ramziy-majoziy tasvirlar ko‘lami va badiiy-estetik jozibadorligi bilan ruh kamoloti va nafs tarbiyasi uchun xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References/Kaynaklar

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 7-jild. Sab’ai sayyor. – Toshkent: 2012, 292-bet.

2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Lison ut-tayr. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 223-bet.
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Xazoyin ul-maoniy. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 733-bet.
4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Xamsa. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 19-bet.
5. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Yettimchi jild. Layli va Majnun. – T.: G’.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 23-bet.
6. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – Москва: “Наука”, 1965, – 54 с.
7. Гайнутдинова Аделя Равилевна. Профетология Корана: истории пророков как элемент построения коранического текста. Авт. канд. дисс. по филол. наук. – М.: 2008. – 24 с.
8. Жавҳар Шулул. Нубувват фалсафаси. – Истанбул, 2010. 45-бет
9. Муҳаммад Ғиёсiddин. Ғиёс ул-луғот (икки жилдлик). “Қонуни маърифат” нашриёти. Иккинчи жилд. –Техрон, 1948. – 468 б.
10. Инжил, Тавротдан “Ибтидо” ва Забур (таржимонлар: Абаев И., Гулкаров Ю.) – Турция: Муқаддас Китобни таржима қилиш институти, 1996. – 584 б.
11. Ислом. Энциклопедия. А-Ҳ. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2017. 345-б.
12. Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 24 б.
13. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Тошкент: “Шарқ”, 2011. – 145 б.
14. Шоев З.Дж. Учение монотеистических религий о пророчестве и его развитие в исламе. Авт. канд. дисс. по философ. наук. – Душанбе, 2011. – 25 с.
15. Рахматуллоҳ қори Обидов. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир. – Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2005. – 142 бет.
16. Рафиддинов С. Навоий ижодида нубувват талқини //Ўзбек тили ва адабиёти. 2019, №1, 45-бет.
17. Фарҳангги истилоҳот ва ибороти ирфоний. Доктор Сайид Жаъфар Сажжодий. – Техрон: Таҳурий нашриёти, 2004. – 829 с.
18. Қуръони Карим (Таржима ва изоҳлар: Алоуддин Мансур). – Т.: Чўлпон, 1992. – 544 б.
19. Қобилов У.У. Илоҳиёт ва бадиият. (1-китоб) Монография. – Тошкент: “Ниҳол”, 2008. – 144 б.
20. Қобилов У.У. Нубувват ҳақиқати – бадиий ижод руҳи. (2-китоб) Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2021. – 304 бет.
21. Qobilov U.U. Profetologiya va o‘zbek adabiyoti. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2023. – 250 bet.
22. Qobilov U.U., Xalmurodov X.Y., Sanaqulov U. Alisher Navoiy: she’r va shoir abadiyati. Monografiya. – Toshkent: “LESSON PRESS” nashriyoti, 2023. – 380 bet.
23. Ҳаққул Иброҳим. Тақдир ва тафаккур: Эсселар ва адабий-танқидий мақолалар. – Т.: “Шарқ”, 2007. 34-бет.
25. Ходизода Р. Ҳафт гуфтор дар барои Қуръон. – Душанбе, 2000. – 41c.

**BULLETIN OF THE
INTERNATIONAL JOURNAL
“TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

CONTACT ADDRESS:

Mailing Address:

140104, University boulevard, 15,
Samarkand, Uzbekistan,

Research Institute of Turkology under
Samarkand State University named after
Sharof Rashidov

Phone:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Email:

turkologiya.samdu@gmail.com

Website:

<https://turkologiya.samdu.uz>



REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

1. The article is presented on 8-10 pages;
2. Article structure:
 1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
 2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
 3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone and e-mail address of the author (authors) are indicated in full.
 4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
 5. At the beginning of each article, there should be an annotation in Uzbek, Turkish and English.
 6. The abstract should be no more than 120-150 words.
 7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
 8. The article should be prepared in the following form:
 - a) Introduction;
 - b) Main part;
 - c) Results and Discussions;
 - d) Conclusions;
 - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
 - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
 - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as "Figure". Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
3. The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
4. Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
5. Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
6. Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

**“TURKOLOGIK
TADQIQOTLAR” XALQARO
JURNALINING AXBOROT
XATI**

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma'rifiy, ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqandda o'tkazilgan sammitida ko'zda tutilgan o'zaro aloqalami jadallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta'sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e'lon qilishga mo'ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e'tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O'zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,
Samarqand, O‘zbekiston,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti huzuridagi
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Elektron pocha:

turkologiya.samdu@gmail.com

Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



**MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN
TALABLAR:**

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
 1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,15 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
 2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otaismi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
 3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, respublika, telefoni va e-mail adresi to‘liq keltirilishi kerak.
 4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
 5. Har bir maqola boshida o‘zbek, turk va ingliz tillarida annotatsiya bo‘lishi lozim.
 6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
 7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
 8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
 - a) Kirish (Introduction);
 - b) Asosiy qism (Main part);
 - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
 - d) Xulosalar (Conclusions);
 - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
 - f) Havola(snoskalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
 - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
 - Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
 - Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalarga jurnalda chop etiladi;
 - Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
 - Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

БЮЛЛЕТЕНЬ МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “ТУРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал, Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, «Туркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ НАПРАВЛЕНИЯМ:

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,
15, город Самарканд, Узбекистан,
Научно-исследовательский
институт Тюркологии при
Самаркандинском Государственном
Университете имени Шарофа
Рашидова

Телефон:

+998 99 582 93 81
+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
 1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, вверху и внизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа А4.
 2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
 3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, телефон и адрес электронной почты автора(ов) должны быть указаны полностью.
 4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
 5. В начале каждой статьи должна быть аннотация на узбекском, турецком и английском языках.
 6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
 7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
 8. Статья должна быть подготовлена в виде:
 - a) Вступление (Introduction);
 - b) Основная часть (Main part);
 - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
 - d) Выводы (Conclusions);
 - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
 - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
 - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
 - Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и plagiat информации и доказательств, представленных в статье;
 - Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
 - Нерекомендованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

“TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayımlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yükseköğretim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı'na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu'nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayımlaması tavsiye edilen ilmî yayınlar listesine dâhil edilmiştir.



DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

İLETİŞİM ADRESİ:

Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvari, 15,
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf
Reşidov adına Semerkant Devlet
Üniversitesine bağlı Türkoloji
Araştırmaları Enstitüsü

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya1

E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

Internet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
 1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyülüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütün olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
 2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
 3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon ve e-posta adresi eksiksiz olarak verilmeli.
 4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
 5. Her makalenin başında Özbekçe, Türkçe ve İngilizce özet bulunmalıdır.
 6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
 7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
 8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
 - a) Giriş (Introduction);
 - b) Ana bölüm (Main part);
 - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
 - d) Sonuçlar (Conclusions);
 - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
 - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
 - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar "Resim" olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
 - Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
 - Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
 - Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
 - Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer olacaktır.

TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL
RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL
DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Muharrir:

Prof. J.Eltazarov

Musahhih va texnik muharrir:

R. Shokirov



ISSN 2992-9229

2024-yil 20-mayda tahriri-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.
2024-yil 24-mayda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i –9.

Adadi 20 nusxa. Buyurtma № 145

SamDU tahriri-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.





ISSN 2992-9229